



## HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLİSH: YANGI PARADİGMALAR VA KUTILADIGAN NATIJALAR

### FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATİSYASI

ISSN: 2181-1776

Axmedova Badia Abdiaziz qizi

*Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumani 110-maktab o'qituvchisi*

## SHAXSDAGI MUSIQIY QOBILIYATLARNING XUSUSIYATLARI, QOBILIYATNING TURLARI

**Annotatsiya:** Ushbu maqola insonning individual xususiyatlaridan biri hisoblanadigan qobiliyat haqida ma'lumot beradi. Sharq xalqlari azal-azaldan san'atsevar xalq hisoblanadi. Tarbiyaning asosiy vositasi sifatida ushbu yo'nalishdan keng foydalanishgan. Alisher Navoiy o'ziga "Navo" taxallusini olishining o'zi ham buning dalilidir.

**Kalit so'zlar:** shaxs; qobiliyat; maxsus qobiliyat; Hofiz Sherazi; Gayden; qobiliyatning sifat darajasi.

*Qobiliyat* deb, shaxsning muayyan faoliyat turini muaffaqiyqtli bajarishga bo'lgan layoqat darajasini ifodalaydigan, turmush jarayonida hosil qilingan individual xususiyatlar yig'indisiga aytildi. Qobiliyatlar bilim, malaka, ko'nikma orttirish xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Bilim, ko'nikma, malaka orttirish qobiliyat sanalmaydi, balki bu ularni o'zlashtirishdagi layoqati, mahorti, intilishida namoyon bo'ladi. Hamda ular asosida ushbu bilim, ko'nikma, malakalar osonlik bilan egallab olinadi. Qobiliyat – kishining muayyan faoliyatiga bo'lgan layoqatidir.

Insonda qobiliyatlar umumiyligi va maxsus bo'linadi:

*Umuniy qobiliyatlar* mayjud bo'lganda kishi faoliyatining turli xillari bilan muvaffaqiyatli shug'ullana oladi. Masalan, tez fikrlay olish, fikrlarning mantiqiyligi va kengligi, kuzatuvchanlik kabilar deyarli barcha faoliyat turlariga xosdir. Umumiyligi qobiliyatlarga ega bo'lgan o'quvchilar odatda barcha fanlarni yaxshi o'zlashtiradilar.



*Maxsus qobiliyatlar esa, kishiga muayyan bir faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug'ullanish imkonini beruvchi, tug'ma ya'ni gen orqali o'tuvchi iste'dod asosida shakllanuvchi xususiyatdir. Masalan, musiqiy, rassomlik, texnik, matematik, shoirlik va yozuvchilik kabi qobiliyatlar maxsus qobiliyatlardir.*

Musiqiy qobiliyatlar shaxsning tug'ma xususiyati bo'l mish **iste'dod** asosida rivojlanadi. Agar kishiga majburan musiqiy bilimlar berilib, musiqaga yo'naltirilsa, bu holat hech qachon kutilgan natijani bermaydi. Qachonki, u o'zining ichki hohish va irodasi asosida o'rgansagina, hamda aynan maxsus musiqiy iste'dodi mavjud holda uni ishlata olsagina musiqachi bo'la oladi. Umumiyl qobiliyat asosida majburan o'rgatilishi ham mumkin. Ammo, bu hollarda maxsus qobiliyatlarning yo'qligi sababli shunchaki havaskor bo'lib oladi xolos. Hamda bu sohada hech qanday yangilik yarata olmaydi. Shuning uchun ham aynan musiqa, rassomchilik, texnika, arxitektura, badiiy ijod va shu kabi sohalarda shaxsning mavjud tug'ma iste'dodi hamda maxsus qobiliyatlari uning muxim xususiyatlari hisoblandi. Har qanday musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun qulay sharoit zarur bo'ladi. Shu jumladan kerakli bilimlar va shunga xos tarbiya muhim rol o'ynaydi. Masalan, Gaydenda to'rt yoshida musiqiy qobiliyati ko'rina boshlagan. Motsart uch yoshida klasevina – fortepianova o'xshash asbobda kuylar chalgan. Unda hayratlanarli darajada slux mavjud edi. U to'rt yoshida o'zi mustaqil kuylar yarata boshlagan. Prokofev esa sakkiz yoshida taniqli kompozitor edi. Iste'dodning o'sib, kamol topishi uchun kerakli muhitning yaratilganligi ning o'zi kifoya emas. Maxsus bilim hamda tarbiya yonma-yon olib borilgandagina qobiliyat bo'lib shakllanadi. Qobiliyat ta'lim jarayonida, o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy qo'llanilishida, ko'nikma va malakalarga ega bo'lish jarayonida o'z kuchiga ega bo'lib, mustahkamlanib kamol topadi.

Bundan tashqari qobiliyatlar o'zining sifat va miqdor darajalariga ega;

- Qobiliyatning sifat xususiyati – shaxs qobiliyatlari nimaga nisbatan namoyon bo'lishini, qanday individual psixologik xususiyatlar faoliyat jarayoni muvaffaqiytining zaruriy sharti ekanligi bilan xarakterlanadi. Masalan, musiqachi kuchli eshitish slux va absolut eshitish musiqani farqlash, ijodkorlik, tasavvurot hamda musiqiy ritmik sifatlarga ega bo'lishi lozim.

- Qobiliyatning miqdor xususiyati – shaxsning bilim, ko'nikma va malakalarini qanchalik tez, yengil va mustahkam egallashi bilan harakterlanadi. Masalan, ba'zi musiqachilar uchun biron bir kuyni o'rganish uchun uni bir ikki marotaba eshitish kifoya qiladi. Shuzahoti uni o'rganib oladilar.

San'atning turlari juda ko'p. Sozandalik, xonandalik, raqqosalik, bastakorlik, kompozitorlik, direjorlik va boshqalar kabitidir. Ularning har biri o'z tuzilishi va funksiyalariga ega. Hamda qar qaysi biri o'z ichiga turli yo'nalishlarni oladi va shu sababli ular xarakteristikaga egadirlar.

*Yuksak va oliyjanob maqsadlar kishining barcha ruhiy kuch va qobiliyatlarining o'sishiga stimul bo'lib xizmat qiladi.*

Musiqiy janrlar bir-biridan farqlanadi:

- Opera va balet;
- Klassika;



- Folklor;
- Milliy mumtoz;
- Milliy ertrada;
- Estrada;
- Estrada pop, jaz, rok, hip-hop.

Musiqiy janrlarning soni yildan-yilga ko'payib bormoqda. San'at sohasidagi yangiliklar, ijtimoiy muhitning ta'siri asosida hamda yoshlarning intelekt va qobiliyatlari yangicha yo'naliishlarni paydo bo'lishiga zamin yaratadi.

Yurtimizda nomlari jahon miqyosida tan olingen olimlar ko'plab topiladi. Bu qalbimizda faxr va g'urur tuyg'usini uyg'otadi. Ul-Umaviy, Alisher Navoiy, Hofiz Sheroziy, Hofiz Buxoriy, Udiy, Ali Qushchi kabi musiqashunoslar tarixda o'zlaridan katta iz qoldirganlar. Xalqimiz orasida ma'naviy va madaniy saviyani yanada oshirish, yoshlar orasidan ko'plab talantli va salohiyatli, intelektlilarini kamol toptirish va yuzaga chiqarish uchun ko'plar ishlar amalga oshirilmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Umumiy psixologiya. M.E.Zufarova. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent – 2010 y. 295-b, 300-b.
2. Musiqaning elementar nazariyasi. A.Bahriyev. BuxDU 2011 y.
3. Yosh davrlari psixologiyasi. Ergash G'oziyev. O'qituvchi nashriyoti – 1994 y.
4. Musiqa va musiqiy qobiliyat psixologiyasi. A.E.Taras.- M.:AST, Holis, 2005 y.